

Musoning mo'jizalari



15:00 / 09.01.2022 13305

Fir'avn o'zining g'azab o'qlarini bo'shatgach, Muso uni Alloh o'qi bilan otmoqchi bo'ldi.

«(Muso) **dedi» Yoki men senga ochiq-oydin narsa keltirsamchi?!»**

«(Fir'avn) **dedi: «Agar rostgo'y kishilardan bo'lib, oyat mo'jiza bilan kelgan bo'lsang, qani uni keltir».**

«**Shunda** (Muso tutib turgan) **asosini tashlagan edi, banogoh u aso rostakam ajdarga aylandi. Keyin qo'lini (cho'ntagidan) chiqargan edi, banogoh u qarab turganlarga (kundan ham) oq bo'lib ko'rindi.** (Holbuki, Muso qoramag'iz odam edi)».

Fir'avn hamsuhbatlariga aytish uchun yana gap topdi. «(Fir'avn) **atrofidagi kishilarga dedi: «Albatta bu bilimdon sehgardir».**

Majlis ahli ham uning soʻzini quvvatlab: **«Bu ochiq sehr» dedilar».**

«Muso dedi: «Sizlarga haqiqat kelgan vaqtda («Bu sehr»), deysizlarmi?! Sehrmi shu? Axir sehrgarlar muvaffaqiyat qozonolmaydilar-ku?!»

Fir'avn Musoga boshqa oʻq otdi va: «Ular dedilar: «Sen bizlarni otabobolarimizni amal qilgan holda topgan dinimizdan burish uchun va ikkovingiz yerimizga ega boʻlib olish uchun keldingmi?! Biz sizlarga iymon keltirguvchi emasmiz!».

Fir'avn xalqni podshohlar qiligi kabi Muso alayhissalomga qarshi qayramoqchi boʻldi:

«Fir'avn aytdi: «U sizlarni oʻz yeringizdan chiqarmoqchi, nima deysizlar?»

Shunda kishilar Fir'avnga quyidagicha maslahat berdilar:

- Sen mamlakatingdagi jami oʻtkir sehrgarlarni toʻplagin. Ular Musoni magʻlub qilsinlar. Shunday qilib butun Misr mamlakati boʻylab jarchilar

tarqatildi:

- **«Ogoh boʻlingizkim, kimda-kim sehr (qilish)ni bilsa, shoh huzuriga borsin».**

Mamlakatning turli burchaklaridan sehrgarlar yigʻildi. Ziynat kuni deb atalgan bayram kuni vaʼdalashilgan vaqt boʻldi.

«Odamlarga aytili: «Sizlar toʻplanguvchimisizlar?

Shoyad biz, agar ular gʻolib boʻlsalar, sehrgarlarga ergashsak».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad